

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI TA'MINLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ME'YORIY-HUQUQIY VA TASHKILIY ASOSLARI

Raupov Abdurahmon Ilhomovich

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni
rivojlantirish va iste'molchilarning huquqlarini
himoya qilish qo'mitasi bo'lim boshlig'i

Annotatsiya

Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish korxonalarida iste'molchi huquqlarini himoya qilishning amaldagi holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha davlat siyosatining samaradorligi tahlil qilinadi. Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish qo'mitasining 2024-yilda olib borgan monitoring natijalari asosida 695 ta umumiy ovqatlanish korxonasida aniqlangan kamchiliklar, sanitariya-gigiyena me'yorlariga rioya etilmaslik holatlari hamda iste'molchilar murojaatlarining tahliliy ko'rsatkichlari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari sohada xizmat sifati, huquqiy madaniyat va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ijrosi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: umumiy ovqatlanish, iste'molchi huquqlari, raqobat muhit, sanitariya nazorati, xizmat sifati, davlat nazorati, raqamli iqtisodiyot

Аннотация

В данном тезисе анализируется текущее состояние защиты прав потребителей в предприятиях общественного питания Республики Узбекистан, существующие проблемы и эффективность государственной политики по их устранению. На основе результатов мониторинга, проведённого Комитетом по развитию конкуренции и защите прав потребителей в 2024 году, рассматриваются выявленные нарушения в 695 предприятиях общественного питания, несоблюдение санитарно-гигиенических норм, а также аналитические показатели обращений потребителей. Результаты исследования показывают наличие тесной взаимосвязи между качеством обслуживания, правовой культурой и исполнением нормативно-правовых документов в данной сфере.

Ключевые слова: общественное питание, права потребителей, конкурентная среда, санитарный контроль, качество услуг, государственный контроль, цифровая экономика.

Abstract

This thesis analyzes the current state of consumer rights protection in public catering enterprises in the Republic of Uzbekistan, existing issues, and the effectiveness of government policy in addressing them. Based on the 2024 monitoring results conducted by the Committee for the Development of Competition and Consumer Protection, the study examines violations identified in 695 public catering enterprises, non-compliance with sanitary and hygiene standards, and analytical indicators of consumer complaints. The research findings reveal a strong interconnection between service quality, legal culture, and the enforcement of regulatory legal documents in the sector.

Keywords: public catering, consumer rights, competitive environment, sanitary control, service quality, government supervision, digital economy.

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot va xizmatlar sektori jadal rivojlanib borayotgan sharoitda iste'molchi huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Mamlakat Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Raqamli O'zbekiston – 2030"¹ strategiyasi aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, raqamli platformalarda adolatli raqobat muhitini shakllantirish hamda fuqarolarning iqtisodiy ishonchini mustahkamlashni ustuvor vazifa sifatida belgilab bergan. Mazkur strategiya doirasida iste'molchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida tashkil etish zarurati yanada dolzarb tus olmoqda.

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning o'tgan davri mobaynida umumiy ovqatlanish korxonalariga oid 245 ta iste'molchi murojaati qayd etilgan. Ushbu murojaatlarning 26,5 foizi savdo va sanitariya mahsulotlarini joylashtirish hamda saqlash qoidalarini buzish bilan bog'liq, 24 foizi narxlarning asossiz oshirilishi, 10 foizi esa davlat tilida axborot yetarli taqdim etilmaganligi holatlariga to'g'ri keladi.

Qo'mita tashabbusi bilan O'zbekiston iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi hamkorligida o'tkazilgan o'rganishlarda 695 ta umumiy ovqatlanish korxonasi qamrab olingan. Tadqiqot davomida xizmat ko'rsatish sifati, axborot taqdimoti va xavfsizlik infratuzilmasi bo'yicha ko'plab kamchiliklar aniqlangan. Quyidagi jadvalda o'rganish natijalari bo'yicha eng muhim ko'rsatkichlar keltiriladi.

1-jadval.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida aniqlangan asosiy kamchiliklar (2024-yil tahlili asosida)²

№	Aniqlangan kamchilik turi	Korxonalar soni	Ulushi (%)
1	Davlat tilida taomnoma mavjud emas	524	75,4
2	Ish tartibi ko'rsatilmagan	480	69,1
3	Narxnoma mavjud emas	449	64,6
4	Avtoturargoh mavjud emas	429	61,7
5	Favqulodda chiqish yo'laklari yo'q	519	74,6

Mazkur jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, umumiy ovqatlanish subyektlarida eng dolzarb muammo iste'molchilarga taqdim etilayotgan axborotning yetarli emasligidir. Taomnomalar, narxnomalar va ish tartibi kabi elementlarning yo'qligi iste'molchilarning tanlov erkinligini cheklaydi, bu esa

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi. Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

² O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

“Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonun 6-moddasida belgilangan shaffoflik prinsipiga zid holatni yuzaga keltiradi.¹

Bundan tashqari, sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilmasligi, ishlab chiqarish va saqlash jarayonlarining me'yorlardan chetga chiqishi, xodimlarning tibbiy ko'rikdan o'tmasligi kabi holatlar xizmat sifati va iste'molchi xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan Nizomga muvofiq, umumiy ovqatlanish korxonalarida xodimlari yiliga kamida ikki marotaba tibbiy ko'rikdan o'tishi shart. Amalda esa bu talab ko'plab subyektlarda muntazam bajarilmayotgani aniqlangan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mazkur sohada nazoratni kuchaytirish, monitoring tizimlarini raqamlashtirish, iste'molchi murojaatlariga tezkor javob beruvchi platformalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Shu orqali nafaqat xizmat sifati, balki korxonalar o'rtasida adolatli raqobat muhitini yaratish, iste'molchi ishonchini mustahkamlash imkoniyati paydo bo'ladi.

O'zbekiston umumiy ovqatlanish sohasida iste'molchi huquqlarini himoya qilish mexanizmlari me'yoriy asosga ega bo'lsa-da, amaliy ijro darajasida tizimli kamchiliklar mavjud. 2024-yilgi tahlillar sohada xizmat sifati, sanitariya-gigiyena me'yorlariga rioya etish va axborot taqdimoti bo'yicha jiddiy e'tibor talab qilinishini ko'rsatdi. Shu sababli, umumiy ovqatlanish korxonalarida xodimlar malakasini oshirish, raqamli monitoring tizimlarini joriy etish, davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zarur. Bunday yondashuv “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi maqsadlariga muvofiq, aholining turmush sifatini yaxshilash va iste'molchi ishonchini mustahkamlovchi barqaror xizmatlar bozorini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr PF-6079-son “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi. Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 2002-yil 13-fevral 75-son “Umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqish va sotish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-243235>

3. O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati. (2022-yil 20-avgust). Umumiy ovqatlanish korxonalariga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablar (0027-22-son SanQvaN). Toshkent: Adliya vazirligi ro'yxat raqami №104.

4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. (2012-yil 29-avgust). Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom. Adliya vazirligi ro'yxat raqami №2387.

5. O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish qo'mitasi. (2024). Umumiy ovqatlanish korxonalarida

¹ O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish qo'mitasi. (2024). Umumiy ovqatlanish korxonalarida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish holati bo'yicha tahliliy hisobot. Toshkent: Qo'mita nashriyoti

iste'molchilar huquqlarini himoya qilish holati bo'yicha tahliliy hisobot. Toshkent: Qo'mita nashriyoti.

6. O'zbekiston Respublikasi 1996-yil 26-aprel, yangi tahriri — 2021-yil 15-mart 221-I-son “Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4704>

7. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi. (2013). Umumiy ovqatlanish xizmatlari. Umumiy ovqatlanish korxonalari klassifikatsiyasi va umumiy talablar (ГОСТ 30389–2013). Moskva–Toshkent: Standartlashtirish markazi.

HUDUDLARDA MEHNAT RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti

ORCID:0009-0002-2385-5485

E-mail: muhayyo.ravshanova@mail.ru

Sodiqov Quvonchbek Mannon o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada hududlarda mehnat resurslaridan samarali foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Mehnat bozorining hududiy xususiyatlari, bandlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar, hamda mehnat unumdorligini oshirish yo'nalishlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot davomida statistik ma'lumotlar asosida O'zbekiston viloyatlarida mehnat resurslaridan foydalanish darajasi o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy infratuzilma, ta'lim sifati va ijtimoiy sharoitlar mehnat samaradorligining asosiy omillari hisoblanadi.

Kalit so'zlar: mehnat resurslari, samaradorlik, bandlik, inson kapitali, hududiy iqtisodiyot, mehnat bozori.

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты эффективного использования трудовых ресурсов в регионах. Научно обоснованы региональные особенности рынка труда, факторы, влияющие на уровень занятости, а также направления повышения производительности труда. На основе статистических данных исследован уровень использования трудовых ресурсов в областях Узбекистана. Результаты показали, что экономическая инфраструктура, качество образования и социальные условия являются основными факторами эффективности труда.

Ключевые слова: трудовые ресурсы, эффективность, занятость, человеческий капитал, региональная экономика, рынок труда

Abstract

This article analyzes the theoretical and practical aspects of effective use of labor resources in the regions. It scientifically substantiates the regional characteristics of the labor market, the factors influencing employment levels, and the directions for increasing labor productivity. Based on statistical data, the study examines the utilization level of labor resources in various regions of Uzbekistan. The findings reveal that economic infrastructure, education quality, and social conditions are the main determinants of labor efficiency.

Keywords: labor resources, efficiency, employment, human capital, regional economy, labor market

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat resurslari iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki har qanday iqtisodiy o'sishning asosi inson mehnatiga, uning bilim va salohiyatiga tayanadi. Hozirgi globallashuv sharoitida inson kapitali mamlakatlarning raqobatbardoshligini belgilovchi eng muhim omillardan biriga aylanmoqda. Shu bois mehnat resurslarini samarali boshqarish, ularning malakasini oshirish va bandlik imkoniyatlarini kengaytirish nafaqat ijtimoiy barqarorlik, balki barqaror iqtisodiy o'sishning ham kafolatidir. Prezident Sh.M.Mirziyoyev o'z chiqishlarida “mehnat resurslarining samaradorligini oshirmasdan iqtisodiyotda yuqori o'sish sur'atlariga erishish qiyin” ekanligini alohida ta'kidlagan [1]. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, avvalo, u yerdagi mehnat salohiyatining shakllanishi, uning tarkibi va samarali foydalanish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida mehnat resurslari mamlakat umumiy aholining 58 foizini tashkil etadi [2]. Shu sababli, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, ularning bandligini ta'minlash va samaradorligini oshirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Hududiy mehnat bozorida kuzatilayotgan asosiy muammolar – bu bandlik darajasining notekisligi, kasbiy malakalar nomutanosibligi, rasmiy bo'lmagan mehnat bilan band aholining yuqoriligi va yoshlar bandligidagi sustlikdir. Shuningdek, ayollar bandligini ta'minlash hamon ijtimoiy siyosatning muhim vazifasi bo'lib qolmoqda. Shu sababli, hududlarda mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalasiga kompleks yondashuv zarur.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalasi nafaqat iqtisodiyotshunoslar, balki jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq sohalarida izlanish olib borayotgan ko'plab olimlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Turli ilmiy maktab vakillari ushbu jarayonning mohiyatini o'z nazariy qarashlari orqali yoritishga uringanlar.

Masalan, A.G'ulomov o'z tadqiqotlarida mehnat bozorining hududiy tuzilmasini takomillashtirish zaruriyatini chuqur tahlil qilib, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining barqarorligi aynan shu omilga bevosita bog'liqligini asoslab bergan [3]. N.Abdullaeva esa mehnat resurslari tarkibini tahlil etar ekan, ayniqsa yoshlar bandligi va gender muvozanati masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, mehnat resurslaridan to'liq va samarali foydalanish uchun har bir ijtimoiy guruhning imkoniyatlarini teng ta'minlash zarur [4].

Jahon iqtisodiy tafakkurida o'z o'rniga ega bo'lgan olimlardan S.Kuznets iqtisodiy o'sish jarayonida mehnat unumdorligi bilan daromadlar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, inson kapitaliga sarmoya kiritishning jamiyat farovonligi uchun beqiyos ahamiyatini ko'rsatgan [5]. Uning g'oyalarini davom ettirgan G.Becker esa “Inson kapitali nazariyasi” orqali mehnat resurslaridan samarali foydalanishning nazariy poydevorini yaratgan [6]. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti muammolarini o'rgangan D.Todaro ortiqcha mehnat resurslarining migratsiya jarayonlari orqali iqtisodiy muvozanatga ta'sirini tahlil etadi [7]. U mehnat harakati va iqtisodiy tenglik o'rtasidagi murakkab aloqadorlikni ko'rsatib beradi.

Mahalliy olimlardan Sh.Xakimov esa O'zbekiston mehnat bozorining zamonaviy tendensiyalarini o'rganar ekan, hududiy infratuzilmaning mehnat samaradorligiga ta'siri haqida qimmatli ilmiy xulosalar beradi [8]. Shu tariqa, mavjud tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalasi faqat bandlik siyosati doirasida emas, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, innovatsiyalar va inson kapitali rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq jarayondir. Har bir olim bu masalaga o'z nuqtai nazaridan yondashgan bo'lsa-da, ularning umumiy fikri bitta — inson mehnati iqtisodiy o'sishning eng muhim manbai, eng qimmatli resursidir.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda statistik tahlil, taqqoslash, indeks tahlili va grafik metodlardan foydalanildi. Statistik tahlil orqali O'zbekistonning turli hududlari bo'yicha mehnat resurslari tarkibi, iqtisodiy faollik darajasi va bandlik ko'rsatkichlari o'rganildi. Taqqoslash metodi yordamida hududlar kesimida bandlik darajasi solishtirildi, indeks tahlili orqali mehnat samaradorligi o'sish sur'atlari baholandi. Grafik tahlil esa mehnat bozoridagi dinamik o'zgarishlarni ko'rsatish imkonini berdi. Tadqiqotning asosiy ma'lumot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Mehnat va bandlik vazirligi hisobotlari hamda ilmiy maqolalar bazasi ishlatildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalasi bugungi kunda eng dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Mamlakatda 2024-yil yakunlariga ko'ra, mehnat resurslari soni 20,3 million kishini tashkil etdi, bu esa umumiy aholining qariyb 58 foizini ifodalaydi. Shulardan 18,5 million nafari iqtisodiy faol aholiga kiradi, 1,8 million nafari esa iqtisodiy nafaol qatlamni tashkil etadi. Ishsizlik darajasi 7,5 foiz atrofida qayd etilgan bo'lib, bu 2020-yildagi 10,6 foiz ko'rsatkichiga nisbatan ijobiy dinamikani ko'rsatadi [2].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Toshkent shahri, Farg'ona va Samarqand viloyatlari mamlakat bo'yicha eng katta mehnat salohiyatiga ega hududlar sifatida ajralib turadi. Toshkent shahrida band aholining 62 foizi xizmat ko'rsatish sohasida, 25 foizi sanoat tarmoqlarida, qolgan qismi esa transport, qurilish va ta'lim tizimida faoliyat yuritmoqda. Bu sohalar yuqori mehnat unumdorligi bilan tavsiflanadi.

Boshqa tomondan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida mehnat resurslarining asosiy qismi — 60 foizdan ortig'i — qishloq xo'jaligida band. Ushbu tarmoqda mehnat samaradorligi past, ishlab chiqarish hajmi esa mavsumiylikka bog'liq. 2024-yilda ushbu viloyatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulot hajmi o'rtacha 15,5 million so'mni tashkil etgan bo'lsa, Toshkent shahrida bu ko'rsatkich 42,3 million so'mga teng bo'lgan.

Hududlar o'rtasidagi bu tafovut, avvalo, ishlab chiqarish texnologiyalarining yangilanish darajasi, infratuzilmaning rivojlanganlik holati hamda inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar bilan bog'liq. Masalan, Toshkent shahrida har bir band kishiga to'g'ri keladigan mehnat unumdorligi indeksi 1,0 ga teng deb olinsa, Andijonda bu ko'rsatkich 0,72 Qashqadaryoda esa atigi 0,59 darajada.

So'nggi yillarda mehnat resurslarining sifat tarkibida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Oliy ma'lumotli mehnat resurslari ulushi 2019-yildagi 14,8 foizdan 2024-yilda 19,6 foizga oshgan. Shu bilan birga, yoshlar bandligi darajasi 16–30 yosh oralig'ida 68 foizni tashkil etmoqda. Ayollar bandligi esa hanuzgacha past — 46 foiz atrofida bo'lib, bu ko'rsatkichni oshirish mamlakat mehnat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Qishloq joylarda mehnat resurslarining ortiqcha miqdori mehnat migratsiyasini kuchaytirgan. 2024-yilda chet elda vaqtincha ishlayotgan O'zbekiston fuqarolari soni 2,1 million kishini tashkil etdi, ularning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Janubiy Koreya va Qozog'istonda band. Shu bilan birga, qaytgan migrantlarning mahalliy mehnat bozoriga integratsiyasi sekin kechmoqda, bu esa hududiy iqtisodiyotlarda “yashirin ishsizlik” muammosini yuzaga keltirmoqda.

Mehnat resurslaridan samarali foydalanish darajasi tarmoqlar kesimida ham farqlanadi. Masalan, sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida bir ishchining yillik ishlab chiqargan mahsuloti qiymati o'rtacha 210 million so'mni, qishloq xo'jaligida esa atigi 90 million so'mni tashkil etadi. Bu raqamlar texnologik yangilanish va raqamli transformatsiya zarurligini yaqqol ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mehnat samaradorligini oshirishda inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida ishlab chiqarish bilan uzviy bog'langan kasbiy o'qitish dasturlari soni 2018-yildagi 143 tadan 2024-yilda 380 taga yetkazildi. Shu asosda har yili o'rtacha 60 ming nafar yosh mutaxassis mehnat bozoriga kirib kelmoqda.

Shunga qaramay, ayrim hududlarda mehnat resurslari bandligini ta'minlashda tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Ishlab chiqarish quvvatlarining notekis joylashuvi, innovatsion texnologiyalar yetishmasligi, ayollar uchun qulay mehnat sharoitlarining cheklanganligi — bu jarayonni to'liq optimallashtirishga to'sqinlik qilmoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun hududlarda iqtisodiyotning diversifikatsiyasi, yangi texnologiyalarni joriy etish, kasbiy malaka tizimini takomillashtirish va mehnat infratuzilmasini kengaytirish zarur. Ayniqsa, yoshlar va ayollar bandligini oshirish, qaytgan migrantlar uchun “mehnat inkubatorlari”ni tashkil etish, raqamli bandlik platformalarini rivojlantirish kabi chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, mehnat resurslaridan oqilona va ilmiy asosda foydalanish nafaqat bandlik darajasini oshiradi, balki hududiy iqtisodiyotlarning barqaror o'sishini, aholining turmush darajasi yuksalishini va ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududlarda mehnat resurslaridan samarali foydalanish bugungi kunda mamlakat iqtisodiy rivojlanishining eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Mehnat bozori barqarorligini ta'minlash, bandlik darajasini oshirish va inson kapitalidan oqilona foydalanish davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylanib bormoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mehnat resurslarining samarali ishlatilishi nafaqat

iqtisodiy o'sish, balki ijtimoiy barqarorlik, aholi farovonligi va hududlararo tenglikni ta'minlashda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sharoitida mehnat resurslarining katta qismi yoshlar va mehnatga layoqatli aholining salmoqli qatlamidan iborat bo'lib, ularning salohiyatini to'liq ishga solish iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun muhim zaxira hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda mehnat resurslarining ortiqcha bo'lishi yoki kam ishlatilishi, migratsiya jarayonlarining kuchayishi, kasbiy malaka nomutanosibligi kabi muammolar hamon dolzarbdir. Bu esa mehnat bozori infratuzilmasini yangilash, zamonaviy kasb va malaka tizimini rivojlantirish, aholini qayta tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi mehnat resurslaridan foydalanishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masofaviy ish, frilans, onlayn xizmatlar va texnologik startaplarga asoslangan bandlik shakllari mehnat bozorining yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonlar, o'z navbatida, aholi bandligini diversifikatsiyalash va ayollar hamda yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, hududlarda mehnat resurslaridan samarali foydalanish – bu murakkab, ammo iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot uchun zaruriy jarayondir. U mehnat bozori siyosati, ta'lim tizimi, ijtimoiy infratuzilma va texnologik yangilanishlarning uyg'unlashuvi natijasidagina kutilgan samara beradi. Shunday ekan, kelgusida mehnat resurslarining sifat tarkibini yaxshilash, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, kasbiy malaka va raqamli ko'nikmalarni oshirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari, 2024-yil.
3. G'ulomov A. "Hududiy iqtisodiy rivojlanish va mehnat resurslari muammolari." – T.: Fan va texnologiya, 2020.
4. Abdullaeva N. "Mehnat bozori va bandlik siyosatining hududiy xususiyatlari." – T.: Iqtisodiyot, 2019.
5. Kuznets S. "Economic Growth and Income Inequality." – American Economic Review, 1955.
6. Becker G. "Human Capital." – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
7. Todaro M. "Economic Development." – Addison Wesley, 2000.
8. Hakimov Sh. "O'zbekiston mehnat bozorining rivojlanish tendensiyalari." – T.: Iqtisodiyot, 2021.
9. Равшанова, М. М. (2024). Значение педагогических экспериментов в развитии эконометрических навыков учащихся. Экономика и социум, (3-1 (118)), 836-839.
10. Равшанова, М. М. (2023). Эконометрические модели, суть их использования и необходимость эконометрического анализа. Intent Research Scientific Journal, 2(6), 5-9.